

**Nemis tilini o'rganish jarayonida umumiy e'tirof etilgan bosqichlarning
nazariy va amaliy tahlili**

**Gulsanam Xamraliyeva,
Toshkent Goethe instituti,
nemis tili o'qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqola nemis tilini o'rganish jarayonidagi bosqichlarni tahlil qiladi. Til o'rganishdagi lug'at boyligini oshirish, nutq ko'nikmalarini rivojlantirish va bosqichma-bosqich metodik yondoshuvlar asosida o'quv jarayonini samarali tashkil etish muhimligi ko'rsatib o'tiladi. Nemis tilini egallashda har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlari va tavsiya etilgan adabiyotlar muhokama qilinadi.

Абстракт: В данной статье анализируются этапы изучения немецкого языка. Подчеркивается важность увеличения словарного запаса, развития навыков речи и эффективной организации учебного процесса на основе поэтапного методического подхода. Обсуждаются особенности каждого этапа и рекомендуемая литература для успешного овладения немецким языком.

Annotation: This article analyzes the stages of learning the German language. It highlights the importance of expanding vocabulary, developing speaking skills, and effectively organizing the learning process based on a step-by-step methodological approach. The specific characteristics of each stage and recommended literature for successful mastery of the German language are discussed.

Kirish

Hozirgi zamonda chet tillarini o'rganish jarayoni nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki kasbiy faoliyatda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, nemis tili o'rganilishi xalqaro muloqot, ta'lim va madaniy almashinuvda keng qo'llanilmoqda. Til o'rganish bosqichlari va ular asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida, har bir o'rganuvchi lug'at boyligini bosqichma-bosqich kengaytirib boradi va nutqda so'zlarni to'g'ri tanlash ko'nikmasini shakllantiradi. Shu bois, til o'rganish jarayonidagi umumiy qoidalar, bosqichlar va metodologiyalarni chuqur o'rganish, nemis tilini muvaffaqiyatli egallash uchun zarur hisoblanadi. Ushbu maqolada nemis tilini o'rganishdagi bosqichlar, ularning mazmuni va o'rganishga ta'siri tahlil qilinadi

hamda har bir bosqich uchun tavsiya etiladigan o'quv adabiyotlari va metodik yondoshuvlar ko'rib chiqiladi.

Tayanch so'z va iboralar: Nemis tilini o'rganish jarayoni, til o'rganish bosqichlari, lug'at boyligini oshirish va nutq ko'nikmalarini rivojlantirish

Ключевые слова и выражения: Процесс изучения немецкого языка, этапы изучения языка, расширение словарного запаса и развитие навыков речи

Key words and word expressions: The process of learning German language, stages of language learning, vocabulary expansion and development of speaking skills

Chet tillarini o'rganish kishidan katta e'tibor va eng muhimi matonat talab etadi. Tillarning o'zlashtirilishining, ayniqsa, nemis tilini o'rganishni takomillashtirishning bir necha turlari mavjuddir. Yangi tilni boyitishda eng yaxshi manba deb badiiy adabiyot olish mumkin. Biroq tilni o'zlashtirish uchun uni muntazam o'rganish kerak. Har bir so'z va iboralarni o'z o'rniga qo'yib gapirish esa so'zlovchidan alohida mahorat talab etsa, o'z navbatida tinglovchilarga zavq bag'ishlaydi. Tilni yaxshi bilish uchun matnlarni shunchaki yod olish yetarli bo'lmaydi, so'zlardan "quruq" ekvivalentlarsiz foydalanish asosiy kamchiliklardan biri hisoblanadi. Har qanday tilni o'rganishda bu tilning grammatikasini ma'lum darajada bilish muhim sanaladi.

Nemis tilini yaxshi o'zlashtirish uchun muayyan jadval asosida reja tuzib, mashg'ulotlarni tizimli olib borish kerak. Buning uchun o'rganishning o'ziga xos darajalariga rioya qilish lozim bo'ladi. Nemis tilini o'rganish, asosan, 6 darajali jadval asosida amalga oshiriladi. Bular:

Darajalar ГЕР*	Bosqichlar
A1	A1.1; A1.2
A2	A2.1; A2.2
B1	B1.1; B1.2
B2	B2.1; B2.2
C1	C1.1; C1.2
C2	C2

Tilni o'rganish jarayonida kishilar bosqichma-bosqich lug'at boyligini oshirib boradilar. Natijada gap tuzishda mos so'zlarni qanday tanlash malakasiga ega bo'ladilar. Tilni o'rganish dastlab alifbodan boshlanadi, keyinchalik kundalik hayotda har kuni uchraydigan oddiy so'zlarni o'zlashtirishga o'tiladi. Asta-sekin oddiy dialoglar tuziladi, bu esa talaffuzning o'sib borishiga yordam beradi.



GER* – chet tillarini o‘rganishda Umumyevropa konferensiyalari A1 va A2 bosqichlari; nemis tilini elementar oddiy o‘rganish. A bosqichi – boshlang‘ich bosqich. Mazkur bosqich yakunida o‘rganuvchi o‘z nutqida oddiy so‘z va birikmalarni o‘zlashtirib, ularni qiyinchiliksiz ishlata olish ko‘nikmalarini egallaydi. Sodda qilib aytganda, A1 bosqichning muvaffaqiyatli yakuni uchun 150 soat mustaqil tayyorlanish va 25 soat o‘qituvchi bilan ishlash talab qilinadi. A1 bosqichni muvaffaqiyat bilan tugatilgach “Start Deutsch” xalqaro imtihonini topshirish mumkin.

A2 bosqichi o‘rganuvchida kundalik hayotdagi har xil mavzular bo‘yicha muloqot qilishga imkoniyat yaratadi. Masalan, bayramlar, haridlar, bo‘sh vaqt to‘g‘risida, ob-havo va boshqa dolzarb mavzular. A2 bosqichini muvaffaqiyat bilan yakunlab, “Start Deutsch”ning navbatdagi imtihonidan o‘tish mumkin.

B1 va B2 bosqichlari bu – ongli ravishda nemis tilini o‘rganish. B1 bosqichi nemis tilida muloqot qiluvchi mamlakatlar hayotida uchraydigan asosiy masalalarni, adabiyotga xos matn va iboralarni tushunishga yordam beradi. Bunda o‘rganuvchi sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni hamda tuzilayotgan rejalarni to‘g‘ri tushuntirish va erkin bayon qila olishi mumkin bo‘ladi. B1 bosqichi bo‘yicha bilimga ega bo‘lish uchun 2000 taga yaqin so‘zni o‘zlashtirish talab etiladi. B1 bosqichini yakunlagandan so‘ng “Zertifikat Deutsch” imtihonini topshirish mumkin.

B2 bosqichi murakkabroq bosqich hisoblanib, u nisbatan qiyinroq jummalarni tushunishga, matnlarni erkin tarjima qilishga, tarjima qilingan matn borasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri fikr bildirish, kishilar bilan so‘zlashishga va suhbatdoshning gaplarini tez anglashga yordam beradi. Bundan tashqari o‘rganuvchi guruhlar orasidagi munozarali bahslar, debatlar uyushtirish, muammo ustida ishlash hamda unga yechim topish va uni tushuntirib bera olish malakasiga ega bo‘ladi.

C1 va C2 bosqichlar – nemis tilini to‘laqonli o‘zlashtirish. Bu bosqichni yakunlovchilardan 7000 dan ziyod so‘zlarni bilish talab etiladi. C1 bosqichini yakunlab “Zentrale Mittelprüfung” imtihonini topshirish mumkin. Bu sertifikatga ega bo‘lgan mutaxassis barcha o‘quv muassasalari tomonidan nemis tilini yetarli darajada biluvchi sifatida qaraladi.

C2 bosqichini egallash katta hajmdagi ilmiy va badiiy asarlarni tushunish, ularni bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilish, ularni analiz va sintez qila olish imkoniyatini yaratadi. Bunda shunchaki ular bilan tanishish emas, balki bu tilda amalga oshirilgan ilmiy ishlarga fikr bildirish hamda o‘zi ham shu kabi dolzarb yangiliklar qila olish malakasiga ega bo‘ladi. C2 bosqichini yakunlab “Zentrale Oberstufenprüfung”

imtihoni topshiriladi. Bosqichlar uchun kitoblar. Kamdan-kam kishilar A bosqichida adabiyot o'qishadi.

A bosqich so'z yasash va grammatikaning boshlang'ich bilimlarini egallash bilan ajralib turadi. Bu bosqichda, odatda, mashqlar bajarib tovush va so'zlarni talaffuz qilishni o'rganish maqsadga muvofiqdir. 10–15 sahifadan ortiq so'zni o'zlashtirish qiyinchilik tug'diradi, tez-tez lug'atga qarashga to'g'ri keladi. Shuning uchun avvaliga bolalarga mo'ljallangan rasmiy kitoblardan, keyinroq maxsus nemis tilidagi qisqa hikoyalardan foydalanish kerak. Bunday kitoblarga misol qilib Felikh & Teolar ning "Tödlicher Schnee", "Ein Mann zu viel", Jacqueline Tschiesche "Tristan und Isolde" kabi hikoya va asarlarni keltirish mumkin. Lug'at boyligi boyishi bilan bu kitoblar juda ham oddiy (oson) tuyiladi. Bu esa keyingi bosqichga o'tish mumkinligini anglatadi.

B bosqichi. Bunda so'z boyligi 2000 taga yetishi mumkin. Ushbu bosqichda dialoglar tuzish, savol bilan murojaat qilish yoki suhbatdoshga nimanidir tushuntirish kabilarni o'zlashtiriladi. Bu bosqichda A bosqichga qaraganda hikoyalar hajm jihatidan ancha ko'proq hamda xohish va kayfiyatga moslab tanlash mumkin. Bunda avvaliga 20–30 betli hikoyalar, so'ngra 50–60 sahifali asarlar yetarlidir. Bunday kitoblar sirasiga Stefanie Wülfing ning "Heiße Spur in München", Leonhard Thoma ning "Das Wunschhaus andere Geschichten" kabilarni olish mumkin. Ko'p o'quvchilar bu bosqichda qolishni ma'qul ko'radilar, chunki bu bosqichdagi bilimlar shu tildagi asarlardan zavq olish uchun yetarli darajada bo'ladi.

C bosqichida o'rganiladigan adabiyotlarga ilmiy, badiiy va texnika sohasiga oid deyarli barcha turdagi asarlar kiradi. Bular nemis tilida yozilgan yoki boshqa tillardan tarjima qilingan mashhur yozuvchilarning asarlari bo'lishi ham mumkin. Masalan, Leonhard Thoma ning „Die Blaumacherin“ asari.

Ushbu bosqichda II'i metodikasiga oid kitoblarni olish mumkin. II'i Frank metodikasi kitob o'qish orqali til o'rganish demakdir. Bunda II'i Frank adaptatsiyasini eslatib o'tish muhim ahamiyatga ega. Matnlar o'zgarmagan holatda qolib, ular har bir hatboshi tarjimasidan so'ng qo'shimcha va izohlar bilan to'ldirib boriladi.

Aytib o'tilganiday, til ko'nikmalarni yaxshilashning ko'p usullari mavjud. Lekin eng yaxshi usullaridan biri badiiy adabiyot va maqolalarni o'qish hisoblanadi. Shu bilan birga nafaqat to'g'ri fikrlash, yozish, gaplashishni o'rganish, balki mamlakat an'analari va madaniyati bilan tanishish ham maqsadga muvofiqdir. Yangi bosqichga o'tish uchun muntazam mashg'ulotlar olib borish, o'qishga to'g'ri yondashish kerak bo'ladi. Mashq,



qoida va topshiriqlar, mavjud metodik kitoblar oʻrganish jarayonining eng kerakli qismi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бориско Н. Ф., Deutsch für Fortgeschrittene Niveau. немецкий язык Уровен совершенства.
2. Александир Кравченко, Говорите по-неметиски! Sprechen Sie Deutsch! Пазбитие навийков устной речи
3. Wolfgang Gehring — *Fremdsprache Deutsch (DaF/DaZ) unterrichten*. UTB, 2023.
4. Jachim Scheuerer, Sinem Sasmaz, Rolf Brüseke — *Einstiegskurs DaF. Kurs- und Übungsbuch + CD, monolingual*. Beltz & Gelberg, 2016.
5. [хттп://топ100лингва ру /блог / библиотека](http://top100lingua.ru/blog/biblioteka)
6. хтт:// [www.лабиринт .ру /боокс/375276/](http://www.labyrinth.ru/book/375276/).